

## ABDURAHMON IBN XALDUN ASARLARI USTIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR TAHLILI

Sobirova Maxzuna Ibroximjon qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10990337>

### Annotatsiya

Mazkur maqola Abdurahmon Ibn Xaldun qalamiga mansub asarlar ustida olib borilgan mahalliy va xorijiy tadqiqotlar tahliliga bag'ishlanadi. Bu tadqiqotlarda Xaldun ijodining barcha qirralari ochib berishga harakat qilingan.

O'tmishda shunday buyuk asarlar yaratilganki, ularni asl varianti bizgacha yetib kelmagan bo'lsada, qo'lyozma nusxalari mavjud. Shunday asarlari bizgacha yetib kelgan siymolardan biri arab musulmon faylasufi, tarixchisi va mutafakkiri Abu Zayd Abdurahmon ibn Muhammad ibn Xaldun al-Xazramiy al-Ishbiliydir. Abdurahmon ibn Xaldunning "Tarixi ibn Xaldun" asari 2 jildan iborat kitob holida arab tilida nashr etilgan va bu asar nafaqat tarix, balki sotsiologiya, iqtisodiyot va boshqa fan tarmoqlariga ham oid muhim asardir. Asar tarkibida butun islom tarixi va mamlakatlar tarixi o'rin olgan. Biz uchun eng muhim tomonlari esa bu arab muarrixining o'z kitobida yurtimiz tarixini yoritib berilganini tadqiq qilishdir. Bu jihatdan bugungacha qisman izlanishlar olib borilgan ya'ni soha mutaxassisleri o'z izlanish mavzusiga doir ba'zi jihatlarinigina yoritib berilgan. Lekin aynan asarda yozilgan Movarounnahr va Xorazmda hukm surgan sulolalar va ularning humkdorlik davri to'liq tadqiq qilinmagan. Shu jihatdan olib qarasaq, asarning yurtimiz tarixiga oid o'rinlarini tarjima qilib, tadqiq qilish va yurtimiz tarixiga oid boshqa manbalar bilan solishtirilib, qiyosiy o'rganish tadqiqotning zarur ekanligini va dolzarbligini ta'minlaydi.

O'rta asrlar Movarounnahr va Xorazm tarixi haqida juda ko'plab asarlar bitilgan va ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Lekin aynan "Tarixi ibn Xaldun" asarining yurtimiz tarixida oid qismlari o'z aksini topmagan. Tarixdan ma'lumki, Ibn Xaldun buyuk sarkarda Amir Temur bilan 3 marta uchrashib, uziq suhbatlar qurgan. Bu haqida Haldun o'zining "At-Ta'rif" asarida alohida bayon etgan. Ibn Haldunning bu uchrashuvi haqida Hamida To'ychiyeva "Xalq so'zi" gazetasida "Tarix zarvaraqlariga oltin harflar bilan bitilgan voqelik" nomli maqola chop etgan.<sup>1</sup> Hozirgi kungacha Sulaymonov Jasur Baxtiyorovich "Abu Zayd Abdurahmon ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasi va axloqiy-aksiologik asoslarining germenevtik tadqiqi" mavzusida va Qayumova Aziza Toshmurodovna "Ibn Xaldun sotsiologik qarashlarida ijtimoiy tuzilmalar va munosabatlar tahlili" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Ibn Xaldun hayoti, asarlari haqida xorijda juda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan, kitoblar yozilgan. Xususan, turk mutaxassisleri Ahu Tunchel va Kurtel Gulenchning "Siyosiy falsafa tarixi yoxud Platondan Zizekka qadar" nomli kitobida Ibn Xaldun hayoti, asarlari va "Muqaddima" asari tadqiq qilingan.<sup>2</sup> Umut Hassan esa "Ibn Xaldun metodi va siyosiy nazariyasi" asarida Ibn Haldunning davlat va jamiyat haqida yozgan g'oyalari yoritgan.<sup>3</sup> 2013-yilda Anqarada o'tkazilgan Ibn Xaldun ijodiga bag'ishlangan simpoziumning o'tkazilishi

<sup>1</sup> To'ychiyeva H. Tarix zarvaraqlariga oltin harflar bilan bitilgan voqelik // "Xalq so'zi" gazetasi. – Toshkent 2021 yil 8 aprel. 71 son. – B.4

<sup>2</sup> Ahu Tunçel Kurtul Gülenç. Siyaset felsefesi tarihi Platondan Zizeke. – Istanbul: Doğu Batı Yayınları, 2013. – 900 s.

<sup>3</sup> Umit Hassan. Ibn Haldun metodu ve Siyaset Teorisi. – Istanbul: Dogu Bati Yatinlari, 2010. – 350 s.

esa Ibn Xaldun ijodini keng jamoatchilikka yetkazish yangi bosqichga chiqqanini yaqqol ko'rsatib turibdi. Simpozium doirasida chop etilgan to'plamda esa Turkiyaning 50 ga yaqin tadqiqotchilarining Ibn Xaldun hayoti va ijodiga doir maqola va tezislari o'rin olgan.

Rus tadqiqotchilaridan F.M.Atsemba, I.L.Alekseyev, B.Arabi, S.M.Batsiyeva, A.N.Ivanov, A.A.Ignatenko, A.E.Krimskiy, I.R.Nasirov, N.S.Rozov, A.V.Smirnov kabi olimlar Ibn Xaldun asarlari ustida ish olib borganlar. Bu olimlar ijodiga nazar solsak, asosan, Ibn Xaldunning ijtimoiy-falsafiy va iqtisodiy qarashlari va islom madaniyatiga oid asarlari tadqiq qilingan. Aynan Markaziy Osiyo tarixiga bag'ishlangan jihatlari ochib berilmagan.

Xorijiy olimlaridan Fischel, Walter Joseph, Alfred fon Kremer, Jorj Labika, Mahdi Muhsin, M.Umer Chapra va boshqa olimlar ijodidagi Ibn Xaldunga bag'ishlangan tadqiqotlarida ham yuqoridagi masala o'z yechimini topmagan.

Yurtimizdagi olimlar ko'proq Xaldunni sotsiolog sifatida tadqiq qilishgan. Sababi, uning "Muqaddima" asarida ijtimoiy hayot va insonning shaxs bo'lib yetishish kamoloti, axloqiy masalalar juda keng ko'lamli yoritilgan. Mazkur asar juda ko'p tillarga tarjima qilingan. Shu kunga qadar o'zbek tilida Ibn Xaldun haqida nisbatan kam sonli tadqiqot ishlari mavjud. Ulardan biri Sulaymonov Jasur Baxtiyorovichning "Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasi axloqiy-aksiologik asoslarning germevtik tadqiqi" mavzusida dissertatsiya ishi yoqlangan. Tadqiqot "Muqaddima" asari asosida yozilgan. Ibn Xaldun jamiyat haqida fundamental fikrlarini davom ettiradi. Mutafakkirning fikricha, taassub jamiyat hayotining asosi, ya'ni poydevoridir. "Taassub", "asabiyya" atamallari arab tilidan kelib chiqqan. "Taassub" so'zi, "taassaba" V bob fe'lining masdar shaklidan bo'lib, tarjimasi «Vatan, millatga bo'lgan otashin muhabbat, fanatizm» demakdir. Ibn Xaldun «asabiyya» atamasini quyidagi ma'nolarda qo'llaydi:

1. Qon -qarindoshlik aloqasi.
2. Qon-qarindoshlik munosabatlari orqali bog'liq bo'lgan odamlar guruhi.
3. Qon-qarindoshlik asosida shakllangan birdamlik hissiyoti.

Ibn Xaldun ijtimoiy hayotiy tartibning bo'rtib turuvchi o'zak omili taassub deb biladi. Endi «asabiyya», ya'ni «taassub» tushunchasining mohiyatini va jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganib chiqamiz. Jamiyat ibtidoiylikdan tamaddunga o'tar ekan, shu bilan bir vaqtda, bu jarayon ibtidoiy demokratiya va tengsizlik munosabatlaridan bo'ysunish, boshqarish munosabatlariga o'tishini ham o'zida ifoda etadi. Ibtidoiylik bosqichida odamlarni bog'lab turadigan munosabatlarni Ibn Xaldun «asabiyya» deb nomlagan. Bu tushuncha qabila, urug' va ularning birlashmalarini o'zida ifoda etadi. Boshqa jixatdan, «asabiyya» odamlar o'rtasidagi qon-qarindoshchilik munosabatlari asosida shakllanadigan aloqadir. Shuningdek, Ibn Xaldun jamiyat taraqqiyotiga tasir qiluvchi omillar haqida so'z yuritar ekan, shunday deydi: "Faylasuflar gapi bilan aytganda "Inson tabiatan ijtimoiy mavjudotdir", u boshqalar bilan birgalashib yashash kerak. Bunday birlashmani ifodalash uchun ular "shahar" so'zidan foydalanadilar. Ijtimoiy, jamoaviy hayotning ma'nosi ham shudir va buni quyida sharhlaymiz: Ollah insonni shunday yaratdiki, u oziq-ovqat bilangina hayot kechira oladi. U bandasiga hayot kechirishi uchun oziq-ovqat topishga tafakkur va layoqat in'om qildi."

Yana bir sotsiologiya sohasida himoya qilingan tadqiqotlardan biri bo'lgan Qayumova Aziza Toshmurodovnaning "Ibn Xaldunning sotsiologik qarashlarida ijtimoiy tuzilmalar va munosabatlar tahlili" mavzusidagi dissertatsiya ishi haqida Xaldunning ijtimoiy qarashlari haqida hikoya qiladi. Jamiyatdagi ijtimoiy tuzilmalarni shakllantirish jarayonida, demografik

va xududiy omillar bilan birga insonlarga xos bulgan ijtimoiy mavqe, kasbiy daraja, ma'lum bir shajaraga mansublik, etnogenetik uziga xosliklar xam ta'sir kursatishi okibatida jamiyatda chuqur tarkiblanish tendensiyalarining uzluksiz kechishiga doir sosiologik nazariyalarni tahlil etish zaruriyatini kuchaytiradi. Bu borada Ibn Xaldun tadqiq etgan sosial stratifikatsiya nazariyasi ilmiy-amaliy axamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Abdurahmon ibn Xaldun hayoti va ijodi, asarlari tahlili borasida xorijda juda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, o'zimizning mahalliy olimlarimizning qilgan tadqiqotlari hali yetarlicha ko'p emas. Shu boisdan mazkur mavzu yuzasidan tadqiqot olib borish yurtimiz tarixini yangi ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

### References:

1. Ahu Tunçel Kurtul Gülenç. Siyaset felsefesi tarihi Platondan Zizeke. – Istanbul: Doğu Batı Yayınları, 2013. – 900 s.
2. Umit Hassan. Ibn Haldun metodu ve Siyaset Teorisi. – Istanbul: Dogu Batı Yatinlari, 2010. – 350 s.



INNOVATIVE  
ACADEMY